

---

## FARG'ONA SHAHAR HOKIMLIGINING BAYONOTI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 25 maydagi 147-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Farg'ona shahrida tashkil etilgan tanlov savdolarini o'tkazish komissiyasining 2014 yil 15 iyuldagi bayonnomasiga asosan "Star Line Group" MChJ tanlov g'olibi deb topilgan. Shundan kelib chiqib, 2015 yil 15 iyulda Farg'ona shahar hokimligi hamda "Star Line Group" MChJ o'rtasida Ahmad Farg'oniy ko'chasi hamda Bahor ko'chalari kesishmasidagi yer maydonida mehmonxona kompleksi qurish bo'yicha shartnoma tuzilgan va tegishli yer maydoni ajratib berilgan (shahar hokimligining 2014 yil 19 sentyabrdagi 1048-son qarori).

Korxonada esa 1,5 yil davomida mehmonxona qurish ishlarini tugatish, 50 ta ish o'rni yaratish hamda 4,5 milliard so'm investitsiya kiritish majburiyatini olgan.

"Star Line Group" MChJ ushbu majburiyatlarini bilib turib, belgilangan muddatda, ya'ni 2016 yil 31 dekabrga qadar bo'lgan davrgacha qurilish ishlarini yakunlamay, 2016 yil 12 oktyabrda mehmonxonani "All Metall Gold" MChJga o'zaro olti-sotdi shartnomasiga muvofiq, sotib yuborgan. "Star Line Group" MChJ bu bilan go'yoki shartnoma majburiyatlarini bajarishni o'z zimmasidan soqit qilgan.

"All Metall Gold" MChJ esa shartnoma ular bilan tuzilmaganligi va undagi shartlarni bajarmaslikni bildirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3217-son qarori 1-ilovasining 47-bandida ham "All Metall Gold" MChJ tomonidan 2018 yilning sentyabr oyida mehmonxonani foydalanishga topshirish vazifasi yuklangan. "Star Line Group" MChJning majburiyati emas, Prezident qarori bilan o'ziga yuklangan vazifani bajarish muddati o'tganiga ham 1,5 yil bo'ldi.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 184-moddasida, mol-mulk yangi mulkdorga o'tganda, universal huquqiy vorislik tartibida sobiq mulkdorning huquq va burchlari ham unga o'tadi, deb belgilab qo'yilgan.

Farg'ona shahar hokimligi "All Metall Gold" MChJni o'z majburiyatlarini bajarishi lozimligi va aks holda yer maydoni qaytarib olinishini bildirib, rasman ogohlantirgan.

Korxonadan belgilangan muddatdan qariyb 4 barobar ko'p vaqt o'tgan bo'lsada, mehmonxona qurib ishga tushirilmadi, tegishli soliq tushumlari bajarilmadi va eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratilmadi.

Shuni inobatga olgan holda, shahar hokimligi korxonada o'z majburiyatlarini bajarmaganligi munosabati bilan shartnomani bir tomonlama bekor qilish talabi bilan sudga murojaat qilgan.

Ushbu jarayon hozir sud tomonidan ko'rib chiqilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda ushbu holat yuzasidan turli bir tomonlama fikrlar bildirilmoqda. Shuni aytishimiz mumkinki, Farg'ona shahar hokimligi tadbirkordan binoni yoki yer maydoni tortib olib, ularga zarar yetkazishga emas, shartnomada ko'rsatib o'tilgan o'z huquqini qonunan bajarilishi tarafdori. Va shuni sud orqali talab qilmoqda. Zero, mazkur yer maydonining qariyb 6 yildan buyon maqsadsiz va samarasiz turishi shahar iqtisodiyotiga ko'p tomonlama zarar keltiryapti. Agar ushbu mehmonxona o'z vaqtida qurib bitkazilganda edi...

2020-01-08 22:33:32